

HARBIY XIZMATCHILARNING XIZMAT FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA AUDITORIYA EFFEKTINING PSIXOLOGIK TA'SIRI

Qudratov Azamat

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Xizmat faoliyatini
tarbiyaviy-psixologik ta'minlash yo'nalishi 3-bosqich kursanti

Annotatsiya: Auditoriya ta'siri, ijtimoiy fasilitatsiya va ingibitsiya fenomenlari ko'plab tadqiqotlarda sport kontekstida o'rganilgan bo'lsa-da, nazariy yondashuvlarning turlicha talqini natijalar qarama-qarshiligiga olib keladi. Mazkur maqolada ushbu nazariyalar harbiy xizmatchilar faoliyatiga tatbiq etilib, auditoriya effekti, "uy ustunligi", olomon xulqi, ota-onalarning (yoki yuqori rahbariyatning) qo'llab-quvvatlash va bosim omillari, shuningdek, zo'ravon auditoriya xatti-harakatlarining harbiy psixologik holatga ta'siri tahlil qilinadi. Harbiy xizmatchilarda psixologik tayyorgarlik, ijtimoiy-emotsional regulyatsiya va auditoriya ta'siriga moslashuvchanlikni rivojlantirish zaruriyati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: psixologik adaptatsiya, auditoriya effekti, ijtimoiy fasilitatsiya, ingibitsiya, harbiy xizmatchi shaxsi, qo'llab-quvvatlash, "uy ustunligi", olomon xulqi, zo'ravon auditoriya, ijtimoiy-psixologik omillar.

Harbiy xizmat sharoitida harbiy xizmatchilar ko'pincha turli "auditoriya" – qo'mondonlar, safdoshlar, keng jamoatchilik, OAV vakillari va hatto qarama-qarshi tomon vakillari oldida o'z faoliyatini bajaradilar va bu ularning individual hamda jamoaviy natijalariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Xuddi sportdagi kabi, harbiy mashg'ulotlar, paradlar, taktik o'yinlar va real operatsiyalar vaqtida kuzatuvchilarning mavjudligi yoki yo'qligi, ularning mulohazalari, qo'llab-quvvatlashi yoki salbiy reaksiyasi natijaga, psixologik holatga va qaror qabul qilish sifatiga ta'sir etadi. Olomon hajmi, zichligi va tajovuzkorligi kabi omillar qanday qilib futboldagi "uy ustunligi"ga o'xshash tarzda "o'z

garnizoni / o‘z hududida ustunlik”ni shakllantirishi mumkinligi ijtimoiy-psixologik jihatdan muhim masaladir. Har bir xizmat vaziyatida harbiy xizmatchilar bevosita yoki bilvosita auditoriya bahosiga tushadilar va olomonning, qo‘mondonlarning, safdoshlarning his-tuyg‘ular ifodasiga duch keladilar. Bu auditoriya: qo‘llab-quvvatlovchi yoki qo‘llab-quvvatlamovchi bo‘lishi mumkin. Birinchi holatda u ijobiy “vibe” uzatib, harbiy xizmatchining muvaffaqiyatini istaydi; ikkinchisida esa uning kutilgan darajada muvaffaqiyat qozonmasligini, xato qilishini yoki muvaffaqiyatsiz ko‘rinishini xohlaydi. Qo‘llab-quvvatlash yoki uning yo‘qligi “qo‘l chalish, hayqiriqlar, maqtov va rag‘batlantiruvchi chaqiriqlar” orqali, salbiy munosabat esa “hushtakbozlik, istehzo, kamsituvchi hayqiriqlar, plakatlari va bannerlar” orqali ifodalanishi mumkin. Harbiy yurishlar, paradlar, ko‘rik-tanlovlar, ochiq o‘quv-jangovar mashg‘ulotlar, xalqaro harbiy musobaqalar va hatto ommaviy norozilik aksiyalarini nazorat qilish jarayonida harbiy xizmatchi doimo shunday auditoriya maydonida harakat qiladi.

Blascovich ta’rifiga ko‘ra, “...ijtimoiy fasilitatsiya boshqalarning (hamkorlar yoki, ko‘proq, kuzatuvchilar/tomoshabinlar) mavjudligi keltirib chiqaradigan ijroning yaxshilanishi yoki yomonlashishi.” Zajonc (1965) tomonidan ilgari surilgan klassik nazariyada boshqalar “shunchaki” borligi ijrochining umumiy qo‘zg‘alishini oshirishi va ustun (dominant) javoblarni kuchaytirishi uqtiriladi. Harbiy xizmatchilar misolida bu shunday talqin qilinishi mumkin: tajribali, tayyorgarligi yuqori harbiy xizmatchi auditoriya qarshisida yanada yaxshi, aniq va ishonchli harakat qilishi, aksincha, tayyorgarligi yetarli bo‘lmagan, xavotir darajasi yuqori bo‘lgan shaxs auditoriya bosimidan “qotib qolishi” yoki xatolarga yo‘l qo‘yishi mumkin. COVID-19 pandemiyasi sport o‘yinlarida “muxlislarsiz” o‘tkazilgan uchrashuvlar orqali “shunchaki ishtirok”ning ham katta psixologik iz qoldirishini yaqqol ko‘rsatdi. McCarrick Yevropa ligalarida 2019/2020 yil mavsumining bir qismini muxlislar bilan, yakunini esa muxlislarsiz o‘tkazilgan o‘yinlar bo‘yicha tahlil qilib, muxlislarsiz o‘yinlarda uy jamoalarining hujumiy imkoniyatlari sezilarli kamayganini, natijada gol va ochkolar soni pasayganini topdi. Harbiy kontekstga ko‘chirsak, o‘z safdoshlarining, qo‘mondonlarining yoki mahalliy aholining ruhiy qo‘llab-

quvvatlovi bo'lmagan sharoitda harbiy xizmatchi ham o'z salohiyatini to'liq namoyon eta olmasligi mumkin.

Bundan tashqari, muvozanatli “uy-mehmon” taqvimida uy jamoalari o'yinlarning 50 foizidan ko'prog'ida g'alaba qozonishi ko'p bora qayd etilgan; bu “uy ustunligi” (home field advantage) deyiladi. Harbiy nuqtayi nazardan, bu hodisa “o'z garnizoni”, “o'z hududi”, “o'z geografik sharoiti va infratuzilmasini yaxshi bilish” ustunligi bilan taqqoslanishi mumkin. Masalan, Turkiya Superligasidagi 18 052 o'yin (1987–2017) statistik tahlilida ham shunday natija olingan (Inan, 2018). Bu hodisa ayniqsa kuchlar nisbatan teng bo'lganda yaqqolroq ko'rinadi (Hagger & Chatzisarantis, 2005). Professional ligalarda (Courneya & Carron, 1992; Seçkin, 2006; Seçkin & Pollard, 2008; García va boshq., 2009; Goumas, 2013; Santos, 2019; Inan, 2020) uy jamoasi mehmonlarga nisbatan qulay muhitga ega bo'lishi ko'p marta ko'rsatilgan. Harbiy amaliyotda bu: o'z bazasi, o'z texnik ta'minoti, tanish relyef va iqlim sharoiti, mahalliy aholi qo'llab-quvvatlovi, til va madaniyatni bilish natijasida yuzaga keladigan operativ-psixologik ustunlik sifatida namoyon bo'ladi. Bu ta'sir faqat jamoaviy sportlargagina xos emas (Jones, 2013; Leitzelar va boshq., 2016; Boudreaux va boshq., 2017; Harb-Wu & Krumer, 2019). Germaniyada U9, U11, U13, U15, U17, U19 yosh guruhlarida ham (U9dan boshqa) uy ustunligi aniqlangan (Staufenbiel va boshq., 2018). Harbiy ta'lim muassasalarida esa o'z poligonini yaxshi bilish, mahalliy sharoit va trening maydonlariga moslashgan bo'lish kursant va ofitserlar uchun o'quv-jangovar mashg'ulotlarda “uy ustunligi” effektini keltirib chiqarishi mumkin.

Inanga ko'ra, olomonning qo'llab-quvvatlashi va zichligi futbolda uy ustunligining asosiy o'zgaruvchilaridir. Harbiy kontekstda buni shunday talqin qilish mumkin: bo'linma shaxsiy tarkibining bir-birini psixologik qo'llab-quvvatlashi, qo'mondonlarning ishonchi va rag'batlantirishi, mahalliy aholining do'stona kayfiyati va mamlakatning vatanparvarlik ruhidagi yondashuvi harbiy xizmatchiga “o'z uyida” ekanlik hissini beradi. Boshqa tadqiqotlar esa uy ustunligining sababi hanuz noaniq, deydi. Henningsen va hammualliflar basketbolchilarda uy olomonidan keladigan ijtimoiy fasilitatsiya yaxshiroq ijroga olib

kelishini ko'rsatdi. Wallace va boshq. (2005) esa bunday holatlar futbolchi uchun yordamdan ko'ra ko'proq zarar keltirishi (uy nuqsoni) mumkinligini ta'kidlaydi. Harbiy sharoitda ham shunga o'xshash paradoks kuzatilishi mumkin: ortiqcha e'tibor, yuqori rahbariyat oldida chiqish, faxriylar yoki xalqaro mehmonlar ishtirokidagi paradlar, ko'riklar va namoyishlarda ayrim harbiy xizmatchilar ruhiy ko'tarinkilik bilan namoyon bo'lsa, boshqalarida ortiqcha tashvish va psixologik blokirovka paydo bo'lishi mumkin.

Epting va boshq. (2011) "cheering"ning na ijobiy, na salbiy aniq ta'sirini topmagan, buni boshqa ishlar ham tasdiqlaydi (Salminen, 1993; Baumeister & Steinhilber, 1984). Boshqa qarashda, bir qator mualliflar (Courneya & Carron, 1992; Waters & Lovell, 2002; Smith, 2003; Inan, 2020) ham sportchilar, ham muxlislar ijobiy qo'llab-quvvatlash (cheering) uy jamoasining ijrosini oshirishini tan olishadi. Harbiy misolda ijobiy qo'llab-quvvatlash qo'shin oldida so'zlovchi qo'mondonning ishonchli nutqi, vatanparvarlik shiorlari, jangovar ruhni oshiruvchi marosimlar ko'rinishida namoyon bo'lishi mumkin. Yana bir ehtimol uy jamoasiga ijobiy qo'llab-quvvatlash mehmon muxlislarning salbiy xatti-harakatlaridan "qalqon" bo'lib xizmat qilishi (Epting va boshq., 2011). Harbiy xizmatchilar uchun "o'z jamoasi"ning qo'llab-quvvatlovi tashqi salbiy bosimni (adovatli auditoriya, qarshi tomondan kelayotgan psixologik hujum, ommaviy axborot vositalaridagi tanqid va h.k.) yumshatib, psixologik barqarorlikni oshirishi mumkin. Safar bilan bog'liq omillar (masofa, yo'nalish, vaqt zonalarini kesib o'tish) ham Avstraliya ligasida (Goumas, 2014) va Jahon chempionati saralash bosqichlarida (Pollard & Armatas, 2017) uy jamoasi foydasiga ishlashi aniqlangan. Harbiy kuchlar uchun esa uzoq masofalarga joy ko'chirish, boshqa vaqt zonasiga o'tish, iqlim va geografik sharoit o'zgarishi, madaniy muhit farqi harbiy xizmatchilarning psixologik va jismoniy tayyorgarligiga yuqori talab qo'yadi.

Harbiy misolda esa shaxsni "faqat resurs" sifatida ko'rish, uning psixologik ehtiyojlari va insoniyligini e'tibordan chetda qoldirish bilan taqqoslash mumkin. Ko'pchilik o'smirlar ota-onalari tomoshabin bo'lishidan xursand bo'lsada, paradoks shundaki, ularning borligi tashvish uyg'otishi mumkin (Bois va boshq., 2009). Xuddi shuningdek, kursantlar ham yuqori darajadagi komissiyalar, general-mayorlar, faxriylar

ishtirokidagi ko‘riklarda faxr va motivatsiyani his etishi bilan birga, ortiqcha tashvish, xato qilishdan qo‘rquvni boshdan kechirishi mumkin. Bu tajovuzkorlikning salbiy xulqlari qichqirish, haddan ziyod jo‘shqin “fanat”lik, bahslashish, ayblash, bezovta qilish bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin (Omli & Wiese-Bjornstal, 2011; Dorsch va boshq., 2015; Bean va boshq., 2016).

Harbiy dastur kontekstida bu norasmiy bosim, mazax qilish, yerga urish, “bo‘shsan”, “qo‘rqoqsan” kabi tamg‘alar orqali ifodalanishi va kursantlar kutayotgan tarbiyaviy maqsadlarga zid bo‘lishi mumkin (Witt & Dangi, 2018); ular rahbariyatdan “aqli raso muxlis” bo‘lishni, adolatli baho va insoniy munosabatni xohlashadi (Tamminen va boshq., 2017; Azimi & Tamminen, 2019). Baler orollari (Ispaniya)da U-15 ikkinchi divizioni o‘yinlarida ota-onalar xulqi kuzatilganda, izohlarning 57,9% neytral, 21,2% ijobiy, 20,8% salbiy bo‘lgani aniqlandi (Palou va boshq., 2019). Harbiy treninglarda ham komandirlarning fikrlari tarkibi taxminan shunga o‘xshash nisbatlarda bo‘lishi mumkin; muhim jihat salbiy mulohazalar konstruktiv, hurmat bilan va individual rivojlanishga yo‘naltirilgan shaklda bo‘lishidir.

Xuddi shuningdek, ayrim harbiy xizmatchilar katta auditoriyani o‘z imkoniyatlarini namoyish etish va faxr hissini kuchaytiruvchi omil sifatida qabul qiladi. Shunday bo‘lsa-da, qo‘pol xulqli auditoriya sportchilar uchun salbiy muhit yaratishi mumkin. Böheim va boshq. (2019) basketbolda uy jamoasi ijrosi olomon hajmi oshgani sari pasayishini ko‘rsatdi. Bundan tashqari, olomon hajmi va zo‘ravon xulq o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik ham qayd etilgan (Strang va boshq., 2018; Knapton va boshq., 2018). Maltada Premyer liga klublari (Aquilina, 2017) va terma jamoa ko‘pincha Ta’ Qali milliy stadionida nisbatan kichik auditoriya oldida o‘ynaydi (Azzopardi, 2018). Harbiy nuqtayi nazardan, namoyishlar, mitinglar, ommaviy tadbirlarni qo‘riqlovchi harbiy bo‘linmalar uchun olomon hajmi va agressivligi xavfsizlik, taktik qarorlar va ruhiy barqarorlikka bevosita ta’sir qiladigan omildir.

Harbiy xizmatda ham ommaviy tadbirlar, norozilik aktsiyalari, siyosiy keskinlik, millatlararo ziddiyatlar fonida olomon agressiyasining oshishi mumkin. Harbiy

xizmatchining xizmat vazifalarini bajarish sifati ham u faoliyat yuritayotgan ijtimoiy-psixologik makon olomon kayfiyati, qo‘mondonlar va safdoshlar munosabati, mahalliy aholi pozitsiyasi bilan chambarchas bog‘liq. Olomonning hajmi ortgan sari sportchi ustida ijtimoiy bosim kuchayishini, lekin bu bosim har doim ham salbiy emasligini ko‘rsatgan. Futbolchilar bilan olib borgan suhbatlarida ko‘pchilik sportchilar katta auditoriyani motivatsion omil sifatida baholaganini, ammo tajovuzkor auditoriya stressni oshirishi mumkinligini aniqlagan. Harbiy misolda ham katta tantanali parad yoki yirik ko‘rikda qatnashish ayrim xizmatchilar uchun qo‘shimcha motivatsiya, boshqalar uchun esa keskin tashvish manbai bo‘lishi mumkin. Zamonaviy tadqiqotlar auditoriya ta‘sirining fiziologik komponentlarini ham tahlil qiladi: yurak urishi tezligining oshishi, kortizol darajasining ko‘tarilishi, mushaklar tarangligi va boshqalar.

Auditoriya effekti bu ijtimoiy fasilitatsiya va ingibitsiya o‘rtasidagi muvozanat natijasidir. U sportchining shaxsiy xususiyatlari, tayyorgarlik darajasi, stressga bardoshlilik va emotsional barqarorligiga qarab o‘zgaradi. Xuddi shuningdek, harbiy xizmatchi uchun ham auditoriya effekti shaxsning temperamenti, tajribasi, emotsional intellekti, stressga chidamliligi, motivatsion tizimi va kasbiy identifikatsiyasi bilan bog‘liq. Ijobiy auditoriya (safdoshlar, qo‘mondonlar, vatanparvar jamoatchilik) harbiy xizmatchi uchun motivatsion kuch, salbiy auditoriya esa stress manbai bo‘lishi mumkin. Shu bois sport psixologiyasida sportchilarda “psixologik immunitet”ni shakllantirish, emotsional o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish, auditoriya ta‘siriga tayyorlash treninglarini joriy etish dolzarbdir. Harbiy psixologiyada ham xuddi shunday: kursant va harbiy xizmatchilarni yuqori e‘tibor sharoitida (parad, ko‘rik, ochiq o‘quv mashg‘uloti, ommaviy tadbirni qo‘riqlash, ekstremal vaziyatlarda OAV va jamoatchilik e‘tibori ostida xizmat o‘tash) o‘zini boshqarish, diqqatni markazlashtirish, salbiy auditoriya ta‘sirini filtrlash va ijobiy qo‘llab-quvvatlovdan konstruktiv foydalanishga o‘rgatish zarur.

Xuddi shuningdek, harbiy xizmatchi psixologiyasi ham inson ongi bilan jangovar faoliyat, xizmat intizomi va o‘quv jarayoni o‘rtasidagi murakkab munosabatlarning asosi hisoblanadi. Uning tamoyillari xizmatdagi muvaffaqiyatni belgilaydi: harbiy xizmatchi

natijadorligini oshiradi, bo‘linma jipsligi va barqarorligini mustahkamlaydi. Har bir jangovar mashg‘ulot yoki parad alohida voqea, har bir harbiy xizmatchi alohida qahramon. Bu dinamik olamda psixologiyaning roli beqiyos: maqsad qo‘yishdan sahna qo‘rquvini yengishgacha, samarali muloqotdan safdoshlar o‘rtasida o‘zaro ishonchni mustahkamlashgacha psixologik strategiyalar xizmat maydonida “sehr” yaratib, harbiy xizmatchilar va bo‘linmalarni muvaffaqiyat va g‘alabaga yetaklaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Zajonc R. B. Social facilitation. *Science*, 149(3681), 269-274.
2. Blascovich J. A biopsychosocial approach to social facilitation. In: *Social Psychology Quarterly*, 55(2), 144-155.
3. McCarrick D. COVID-19 and the home advantage in European football. *European Sport Management Quarterly*.
4. Inan T. Home advantage in Turkish Super League (1987-2017). *Journal of Sports Sciences*, 36(7), 732-740.
5. Wallace H.M., Baumeister R.F., & Vohs K. D. Audience effects in competitive sports: The home disadvantage. *Psychology of Sport and Exercise*, 6(2), 201–212.
6. Epting L.K., Riggs K.N., Knowles J.D., & Hanky J.J. The impact of cheering on performance and perception in sports. *Journal of Applied Social Psychology*, 41(7), 1790-1805.
7. Stott C., Adang O., Livingstone A., & Schreiber M. Crowd psychology and public order policing: An integrated approach to crowd management. *Policing: An International Journal*, 31(2), 204-220.